

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ESHBEKOV BAHODIR NURULLAYEVICH

**JAMIYATDA IJTIMOIY-FALSAFIY TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand –2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Eshbekov Bahodir Nurullayevich

Jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining roli.....3

Эшбеков Бахадыр Нуруллаевич

Роль средств массовой информации в развитии социально-философского мышления в обществе.....21

Eshbekov Bahodir Nurullayevich

The role of the media in the development of socio-philosophical thinking in society..... 38

E’lon qilingan ishlар ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ESHBEKOV BAHODIR NURULLAYEVICH

**JAMIyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni
rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining roli**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand –2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya Komissiyasida
B2020.4.PhD/Fal503 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G‘aybullayev Otobek Muhammadiyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yaxshilikov Jo‘raboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Haydarov Komil Donaboyevich
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» soyat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; E-mail: rektor@samdu.uz Samarqand Davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№45-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlarining matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlari orqali jamiyatning har bir sohasiga chuqur singib, insonlar turmush tarziga ta'sir etib borishi toboro jadallahshmoqda. Matbuot, ommaviy axborot vositalari bunday shiddat va tezkorlik bilan o'zgarishi insoniyatning o'z istiqboli yo'lida so'z erkinligini ta'minlashga, falsafiy tafakkur doirasida real voqelikni ochib berishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga insonlarda yangicha tushunchalar shakllanib, har kungi axborotlarni o'z vaqtida bilishi, mushohada qilish ko'lamni kengayib borishi bilan birga, ularda ijtimoiy-falsafiy voqealar rivojiga monand pragmatik ko'nikma paydo bo'lganligi va jamiyatdagi o'zgarishlarni xolis baholash mezonlari rivojlanayotganligi real haqiqatlarda namoyon bo'lmoqda.

Jahon ilm-fanida ommaviy axborot vositalarining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni bo'yicha sezilarli darajada ilmiy-nazariy tadqiqotlar jadal rivojlanib bormoqda. Xususan, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda ommaviy axborot vositalarining o'rni, zamonaviy jamiyatda jamoatchilik ongining uslublari, yoshlarda stereotiplarni shakllantirish, shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi tizimida ommaviy axborot vositalarining ta'sir ko'rsatish shakllari va usullari tadqiq etilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari faoliyatini tubdan modernizatsiya qilish assosida aholining ijtimoiy-faslafiy tafakkur tarzini yangi bosqichga olib chiqish, so'z erkinligi va matbuot erkinligini falsafiy fenomenga aylanayotganligi va uni tadqiq etish konseptual masala sifatida ilmiy jamoatchilikning tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari sohasida olib borilayotgan islohotlar asosida matbuot va televideniyaning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. "Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi – Yangi O'zbekistonning sifat ko'rsatkichlaridan biriga aylandi"¹. Ommaviy axborot vositalari orqali mahalliy hokimiyat vakillari, tadbirkorlik subyektlari tomonidan muammolar bosqichma-bosqich hal etilib, jamoatchilikka yetkazilayotganligi bevosita hududlarimiz qiyofasini o'zgarishiga, odamlarimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada ortishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ochiqlik siyosatining har bir fuqaro tomonidan elektron yoki mobil telefoni yordamida davlat boshqaruvi organlari, ijtimoiy tarmoqlardagi profillariga murojaatlari ommalashmoqda. Bu esa, ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirish omillarini, targ'ibot va tashviqot mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sun "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 5 -iyuldaggi PF-5106-sun "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sun "Ilm-fanni 2030-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.121.

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, shuningdek, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son “Ommaviy axborot vositalarini qo’llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 21-sentyabrdagi O‘RQ-78-son “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida (yangi tahriri)”gi Qonuni hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“ Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllanishida matbuot, ommaviy axborot vositalari va virtual tarmoqlar asosiy birlamchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Ma’lumki, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni o‘rganish muammolari ijtimoiy-falsafiy tafakkurning hamisha dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Shu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, Djenningz Brayant¹, Metyu Genskov, Djon Kin, Djon Milton, Xant Olkott², Tomas Sazerlend, Suzan Tompson, Ketlin Tayner, Robert Xassan kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, Robert Xassan va Tomas Sazerlend tadqiqotlarida³ jamiyatdagi murakkab ijtimoiy muammolarni faqat ommaviy axborot vositalari yordamida tanqidiy fikrlash, tizimli, maqsadli yondashuv asosida bartaraf etish mumkinligini bayon etadi.

MDH olimlaridan A.S.Abulkasova⁴, N.A.Akopyan, Niyaz Asime⁵, L.N.Belonojko, L.M.Zemlyanova, V.P.Maykova, G.S.Melnik, L.S.Nabokova, A.K.Nazarbetova, L.V.Petrov, V.O.Popova, V.S.Chijma, I.A.Fedyakin, A.Yepjanova, N.Canjap, S.Xodjazoda, Muxtori Kutbiddin, D.M.Sadullayevlarning tadqiqotlarida zamonaviy jamiyatda jamoatchilik ongingin uslublari, yoshlarda stereotiplarni shakllantirish, shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi tizimida ommaviy axborot vositalarining ta’sir ko‘rsatish shakllari va usullari tadqiq

¹ Брайант Дж., Томпсон С. Основы воздействия СМИ (Fundamentals of Media Effects). – Москва: Издательский дом “Вильямс”, 2004. - 432 с.;

² Alcott, H. & Gentzcow, M. (2017). Social Media and Fake News in the 2016. Elections. Journal of Economic Perspectives 31(2).

³ Hassan, R., & Sutherland, T. (2016). Philosophy of Media: A Short History of Ideas and Innovations from Socrates to Social Media (1st ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315515618>;

⁴ Абулкасова А.С. Особенности функционирования СМИ в контексте социально-политической трансформации РК: дис. ... канд. полит. наук. – Алматы, 2004. – 137 с.

⁵ Асиме Н. Формы и методы воздействия СМИ на формирование общественного мнения.: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Минск: 1998.-34 с.

etilganini alohida qayd etish lozim. Rossiyalik olim V.S.Chijmaning ta'kidlaganidek, "ommaviy axborot vositalari, *birinchidan*, ijtimoiy-madaniy voqyelikning quyi tizimlaridan biri, *ikkinchidan*, jamiyat taraqqiyotining energetik omili hisoblanadi, *uchinchidan*, ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar jamoatchilik ongini jalb qilishning turli nuqtalarini aniqlash va ijtimoiy jarayonlarni, jamiyat tizimi va uning ijtimoiy institutlarining yanada rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi"¹.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda ommaviy axborot vositalari, uning odamlar ongi-shuuriga ta'sirining ayrim muammolari hamda jamoatchilik ongini shakllantirishi bir qator faylasuflar, huquqshunoslar, psixologlar, jamiyatshunoslar tomonidan o'rganilgan. Xususan, B.Alimov, O.Abduaazimov, J.M.Abdullayev, S.Mamashokirov, N.Muratova², F.Musayev, A.Muxtarov, D.Norqulov, Q.Nazarov, N.Qosimova, N.Sh.Negmatova, A.Saitqosimov, Sh.Tayloqova, K.Tulenova, Sh.B.Tursunova, K.Farfiyeva, N.Xakimov, K.Xaydarov, Sh.Xalilova³, T.Eshbekov, O.O'sarov, Z.Qodirova, O.G'aybullayevlar tomonidan mavzuning ayrim jihatlari, ya'ni fuqarolik jamiyat shakllanishida ommaviy axborot vositalarining roli, yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari orqali takomillashtirish, O'zbekistonda jamiyatning jamoatchilik bilan aloqalari va ommaviy axborot vositalarning o'rni kabi masalalar tadqiq etiladi. Jumladan, O.O'sarov "Ommaviy axborot vositalarida sud prosesslarini yoritish muammolari", J.Abdullayev "Fuqarolik jamiyat shakllanishida ommaviy axborot vositalarining roli", T.Eshbekov "Jamiyatning jamoatchilik bilan aloqalari va ommaviy axborot vositalari", K.Farfiyeva "Ommaviy axborot vositalari ta'sirida talabalarda ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining o'ziga xosligi", B.Alimov "Xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston imidjini yaratish tamoyili va istiqboli", Sh.Tayloqova "O'quvchi yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari orqali takomillashtirish", Sh.B.Tursunova "Innovasion tafakkurni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining funksional xususiyatlari" mavzuslarida ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularda davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlarida fuqarolarni faol ishtirokini ta'minlash, xalq bilan davlat o'rtasidagi konstruktiv munosabatlarini mustahkamlash, innovasion rivojlanishga erishishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. "Shu nuqtai nazardan ommaviy axborot vositalarining innovasion tafakkur qonuniyatları asosida ijtimoiy borliqni, jamiyat hayotini va kishilar dunyoqarashini yangilashga qaratilgan funksional xususiyatlarini hamda ularning g'oyaviy asoslarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"⁴.

¹ Чижма В.С. Средства массовой информации в самоорганизации социокультурной реальности: диссертация...кандидата философских наук: 09.00.11 // Омск. гос. ун-т им. Ф.М. Достоевского. - Омск, 2012. - 168 с.

² Muratova N. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi. -. Toshkent: Baktria press, 2019. - 112 b.

³ Xalilova Sh.T. O'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (O'zbekiston radiosи eshittirishlari misolida). Pedag.. fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiysi. - Toshkent: O'zMU. 2001. - 142 b.

⁴ Tursunova Sh.B. Innovasion tafakkurni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining funksional xususiyatlari. Fal..fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) dis.avtoref. -Buxoro, 2022. -B.5;

Bundan ko‘rinib turibdiki, yuqorida xorij va mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarini ilmiy ahamiyatini e’tirof etgan holda mazkur dissertatsiya ishimizda ommaviy axborot vositalari orqali jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirish, Uchinchi Renessans sari ildamlashimizda ularining jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirish masalalariga alohida urg‘u berilgan. Bu esa tadqiqot ishining dolzarbligini yanada oshiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2020022811 raqamli “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analari va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” (2020-2022 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishda matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning rolini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamiatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning shakllanishida so‘z va matbuot erkinligini ta’minlashga qaratilgan axborotlar mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash;

odamlar ongi-shuuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan axborot maydonidagi g‘oyalarning ma’naviy hayotda namoyon bo‘lishini konseptual asoslarini ochib berish;

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning xalqimiz milliy qadriyatlari va an’analari, urf-odatlarida in’ikos etishini zamonaviy mohiyatini aniqlash;

jamiatda ommaviy axborot vositalari orqali qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan me’yoriy hujjatlarning fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirishdagi rolini qiyosiy tahlil qilish;

globallashuv davrda ommaviy axborot vositalarining fuqarolar ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy faollashuviga ta’sirini axborot maydonidagi raqobatbardosh shart-sharoitlar asosida mafkuraviy jarayonlar orqali falsafiy tahlil qilish;

jamiatda jurnalist va blogerlarning bilim darajasi va ko‘nikmalarini oshirish asosida keng ommaga taqdim etilayorgan materiallar uchun javobgarligi va ma’suliyatini kuchaytirishga doir shaffof va adolatli muhit yaratishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishda matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishda matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning faoliyatini falsafiy aspektida asoslab berish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning kuzatuv, yakkalik, umumiylilik, induksiya, deduksiya, analiz va sintez, kontent tahlil, tizimli tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatda fuqarolarning voqeа-hodisalarga nisbatan munosabati, mulohozalari va dunyoqarashining shakllanishida jurnalist va blogerlarni bilim saviyasi, madaniyati va kasbiy axloq normalariga amal qilishining ratsional va irratsional qarashlariga uzviy bog‘liqligi isbotlangan;

jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning shakllanishida pozitiv va kreativlikka asoslangan matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar birlamchi omil ekanligi mantiqiy asoslangan;

ijtimoiy-falsafiy tafakkur shakllanishida ommaviy axborot vositarining tarixiy (matbuot, jurnal, radio) va zamonaviy (televidenie, internet) ko‘rinishlarini funksional va reguliyativ mezonlari davr xarakteriga adekvat ekanligi mantiqiy asoslangan;

jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishning asosiy va birlamchi vositasi bo‘lgan matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi islohatlar va yangilanishlarga munosabati va dunyoqarashini shakllantirishda uzlusiz jarayonga ega ekanligi falsafiy dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishda matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning tutgan o‘rni va funksiyalari evolyutsion, transformatsion va innovatsion mohiyatga ega jarayon ekanligi nazariy, metodologik va amaliy xulosalarda umumlashtirilgan hamda aniqlashtirilgan;

bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali berilayotgan materiallar odamlar ongi-shuurini o‘zgarishi, so‘z va matbuot erkinligining jamiyat ijtimoy-falsafiy tafakkuridagi o‘rni bilan bevosita bog‘liqligi, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish mexanizmlari ishlab chiqilgan, axborot madaniyati va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus ilmiy jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya xulosalaridan falsafa, jurnalistika, matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yo‘nalishlariga doir ilmiy tadqiqot olib boruvchilar foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertatsiyada bayon qilingan taklif va tavsiyalardan matbuot, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar faoliyati va ularning muammolar bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar, xususan, davriy nashrlar, teleradiokanallar, milliy media markazlari, davlat va boshqaruv organlari matbuot xizmatlari, badiiy va ijodiy uyushmalar faoliyati samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan nazariy-metodologik qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkur shakllanishida ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilish borasida olingan natijalar asosida:

jamiyatda fuqarolarning voqealarning nisbatan munosabati, mulohozalari va dunyoqarashining shakllanishida jurnalist va blogerlarni bilim saviyasi, madaniyati va kasbiy axloq normalariga amal qilishining ratsional va irratsional qarashlariga uzviy bog‘liqligiga doir xulosalar, tavsiyalar va takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqamli “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” mavzudagi amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 1-dekabrdagi 04/11-7753-son ma’lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini ijrosini ta’minalash hamda Yangi O‘zbekistonda islohotlarning tub mohiyatini keng ommaga erkin, ochiq va xolis yoritish, jamiyatdagi o‘zgarishlarni xolis baholash, mulohoza qilish va xulosa chiqarishga xizmat qilgan;

jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning shakllanishida pozitiv va kreativlikka asoslangan matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar birlamchi omil ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar dasturining VI yo‘nalishida belgilangan “Ahholining Internetdagagi jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy axborot va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga oid chora-tadbirlar” dasturining “Markazning rasmiy manaviyat.uz veb saytida ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat, san’at, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini oshirish, ularda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchanligini oshirish hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar oid sohalar bo‘yicha onlayn viktorinalar tashkil etish” mavzusidagi 26-bandij ijjrosini ta’minalashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat Markazining 2022-yil 1-dekabrdagi 02-22/509-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ijrosini ta’minalashga xizmat qilgan;

ijtimoiy-falsafiy tafakkur shakllanishida ommaviy axborot vositalarining tarixiy (matbuot, jurnal, radio) va zamonaviy (televidenie, internet) ko‘rinishlarini funksional va reguliyativ mezonlari davr xarakteriga adekvat ekanligiga oid ilmiy yangiliklar, taklif va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar instituti bilan hamkorlikda Yevropa Ittifoqi Erasmus + dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS “Computational Lingguistics at Central Asian universitites” mavzusidagi grand loyihasida keng foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 1-dekabrdagi 3363/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasidagi ommaviy axborot vositalarilariga

doir faoliyatni rivojlantirish va tabiiy tilga ishlov beruvchi dastur (NLP tool)ni ishlab chiqishga metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

Jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishning asosiy va birlamchi vositasi bo‘lgan matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi islohatlar va yangilanishlarga munosabati va dunyoqarashini shakllantirishda uzlusiz jarayonga ega ekanligiga oid ilmiy yangilik va nazariy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanalni orqali 2022-yil davomida efirga uzatilgan “Munosabat” tok-shousi, “Assalom O‘zbekiston” tonggi musiqiy dam olish dasturlari ssenariylari hamda bevosita davra-suhbatini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 2022-yil 29-noyabrdagi 1/242-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvlarni mazmunan takomillashtirish va teletomoshabinlarda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning teranlashishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsyaning umumiyyatini 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot matnining “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi va ilmiy yangiligi asoslangan. Ilmiy ishning mamlakatimiz fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan. Izlanishlar jarayonida olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinganligi, aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsyaning hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning birinchi bobini “**Jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkur asosida ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning metodologik negizlari**” deb nomlanib, jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishda “so‘z erkinligi” va “matbuot erkinligi” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlar, ommaviy axborot vositalarining jamiyat ijtimoiy-falsafiy tafakkurini shakllantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlari, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta’minlashda falsafiy tafakkurning roli yoritilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “**Jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishda “so‘z erkinligi” va “matbuot erkinligi” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlar**” deb nomlanib, unda ommaviy axborot vositalarida so‘z erkinligi va matbuot erkinligi masalalari fuqarolarda o‘z faoliyatlariga nisbatan mas’uliyat bilan yondashish, voqelikda eshitib va kuzatib borayotgan

jarayonlarga nisbatan tanqidiy munosabatlardan o‘ziga mantiqan xulosa chiqariladi.

O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi ommaviy axborot vositalari faoliyati va ulurning soni keyingi yillarda keng rivojlanib bormoqda. Xususan, 2022-yil 1-oktyabr holati statistik ma’lumotlarga ko‘ra, “milliy axborot makonida ommaviy axborot vositalari soni 1962 tani, internet nashrlari 733 tani tashkil etadi”¹. Yana bir ma’lumot, agar 2019-yilda davlat va nodavlat tashkilotlardagi axborot xizmatlarining manbalari – rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar 559 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda bu raqam 2410 taga yetdi. Shu davrga holatiga mamlakatimiz aholisi 2022-yil 1-oktyabr holatida “35,8 million kishi bo‘lib, jamoatchilik nazoratini faol amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan 15 yoshdan yuqorilar 24,7 milliondan iborat bo‘lgan bo‘lsa”², albatta, aholi jon boshiga hisoblaganda bu raqamlar juda kamchilikni tashkil etadi. Bugun ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali bemalol jamiyat falsafiy tafakkurida xalqning muammosi, yurtning istiqboli yo‘lidagi milliy g‘oyaga tayanish, so‘z erkinligini ta’minalash, har bir fuqaroning falsafiy tafakkur doirasida real hayotdagi g‘oyalar yechimi natijasini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

So‘z erkinligining bir qancha turli xil ta’riflari mavjud, ammo uning asosiy mohiyati senzura yoki qonuniy harakatlardan qo‘rmasdan g‘oyalar va fikrlarni erkin ifoda etish yoki izlashning qonuniy huquqi haqidadir. So‘z erkinligi so‘z erkinligining bir qismidir, ya’ni shaxslar o‘z fikrini xohlagan tarzda ifoda etish huquqiga ega. Soha bo‘yicha taniqlik AQShlik olim Jeym V.Feye tadqiqotlarida quyidagicha ta’riflanadi; “So‘z erkinligi - bu shaxs yoki jamoaning o‘z fikr va g‘oyalarini repressiya, senzura yoki qonuniy jazodan qo‘rmasdan bayon etish erkinligini qo‘llab-quvvatlaydigan tamoyildir”³.

So‘z erkinligi, matbuot erkinligi va fikr erkinligi kabi atamalar publistikada, siyosiy adabiyotlarda bir-birining o‘rnida ham ishlataladi. Biroq, huquqiy tomondan olib qaraganda, so‘z erkinligi - axborot yoki g‘oyalarni izlash, olish va tarqatish bo‘yicha har qanday faoliyatni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, OAV erkinligi hamda matbuot erkinligi mamlakatda ommaviy axborot vositalarining mustaqil faoliyat olib borishining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolati hisoblanadi. Bu demokratiya jamiyatni barpo etish va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida muhim ahamiyatga ega.

“Ommaviy axborot vositalarining jamiyat ijtimoiy-falsafiy tafakkurini shakllantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida ommaviy axborot vositalari xodimlarining falsafiy tafakkurini rivojlantirish bugungi kunda bevosita mafkura bilan bog‘liq bo‘lib, bunda har bir soha vakili o‘z oldiga qo‘yiladigan maqsadlarni aniq va rejali bajarishi jamiyatda yaxshi samara berishi, bugungi dunyodagi turli g‘oyaviy qarama-qarshilik va kurashlar avj olgan bir paytda falsafiy tafakkurni jamiyatda yoshlар ongiga chuqur singdirish uchun

¹ Otaxonov F. Konstitusiya va jamoatchilik nazorati // Yangi O‘zbekiston gazetasi, № 246 (768), 2022 yil 2 dekabr soni.

² Yuqoridagi manba.

³ Fee, James V. (January 1973). “Book reviews”. Today’s Speech, Volume 21, 1973 - Issue 1. -pp.45–48. doi:10.1080/01463377309369084. ISSN 0040-8573.

jurnalist katta mahoratga ega bo‘lishini ijtimoiy hayotning o‘zi talab etishi bayon qilinadi.

Dissertatsiyada keltirilganidek, jamiyat ijtimoiy falsafiy tafakkurini shaklantirishda ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari axborot xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni beqiyosdir. “Biz jamiyatimizda demokratiya, ochiqlik, oshkoraliq, erkinlik muhitini yaratyapmiz va bu yo‘lni qat’iy davom davom ettiramiz, so‘z va ijod erkinligini ta’minalash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish masalasi bundan buyon ham doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Faqat axborot maydonida faoliyat ko‘rsatayotgan jurnalist va blogerlarimizdan iltimosimiz shuki, bu borada qabul qilingan qonun talablari hammaga birdek barobar ekanini esdan chiqarmaslik kerak”¹. Ya’ni, jamiyatda barchamiz bo‘layotgan o‘zgarishlarga birdek mas’ul ekanligimizni, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda zamon bilan hamnafas bo‘lish lozimligini unutmasligimiz darkor.

Dissertatsiyaning **“Ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta’minalashda falsafiy tafakkurning roli”** deb nomlangan uchinchi paragrafida jamiyatda har bir ommaviy axborot vositasida so‘z erkinligini ta’minalash, matbuot erkinligiga erishish ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi bayon qilinadi. Ayni paytda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlarda so‘z erkinligining rolini kuchaytirish, jamiyatda fuqarolarning mantiqiy fikrlashi va falsafiy tafakkur doirasini kengaytirish ijtimoiy islohotlarda dolzarb masala sanaladi. Tadqiqotda ta’kidlaganidek, hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan davlat va nodavlat teleradiokanallari, gazeta va jurnallar, ijtimoiy tarmoqlar eng avvalo qonun doirasida o‘zligimizga xos va mos tarzda xalqimizning o‘lmas, umrboqiy qadriyat va an’analarini, urf-odatlarini to‘g’ri targ‘ib etishi, o‘quvchi, tomoshabin, tinglovchi va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ijtimoiy-falsafiy tafakkurini shakllanishi, bilim va dunyoqarashining boyishiga, yoshlarimizni Vatanga sadoqat va o‘zaro mehr-oqibatli qilib voyaga yetishlarida so‘z erkinligi ma’suliyatini yanada oshirishga xizmat qilishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Ommaviy axborot vositalarining jamiyat ijtimoiy tafakkuri rivojidagi falsafiy masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida jamiyatda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik ongini shakllantirish mexanizmlari, jamiyat ijtimoiy ongini boshqarishda ommaviy axborot vositalarining zamonaviy yo‘nalishlari, ommaviy axborot vositalarining tipologik tuzilishi va uning jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni masalalari mohiyati ochib berilgan.

Ikkinci bobning **“Jamiyatda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik ongini shakllantirish mexanizmlari”** deb nomlangan birinchi bobida so‘z erkinligi, ochiqlik va shaffoflik ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali berilayotgan ko‘rsatuv, eshittirish, maqolalar tabiiyki inson ongi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.279.

shuuriga o‘z ta’sirini o‘tkazishiga, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik ongini shakllantirishda o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega bo‘lib, har qanday berilayotgan material qaysidir ma’noda ongimizga ta’sir qilishi borasida to‘xtalib o‘tiladi.

Dissertatsiyada axborot maydonida yoshlarining ilmiy va ma’naviy intilishlariga, barkamolligiga tahdid qiluvchi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi geomafkuraviy xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo‘lsak, mustamlakachilik, birovlarni qaram qilish siyosati hali-hanuz yo‘qolmaganini, balki o‘zining shakl-u shamoyilini o‘zgartirayotganligini ko‘rishimiz mumkinligi ta’kidlanadi. Shuningdek, bugun ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar odamlar ongiga, ularning qarashlariga ta’sir etuvchi asosiy vosita bo‘lib, ular orqali berilayotgan materiallar ana shu o‘zgarishlarni ta’minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘layotganligi bayon etiladi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “**Jamiyat ijtimoiy ongini boshqarishda ommaviy axborot vositalarining zamonaviy yo‘nalishlari**” deb nomlanib, bunda Yangi O‘zbekistonda matbuot va ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlarini muvofiqlashtirish, uning huquqiy assoslarni yaratish lozimligi, buning uchun esa ochiqlik, shaffoflik, xolislik va demokratik tamoyillarga monand bo‘lgan tizim yo‘lga qo‘yilishi kerakligiga to‘xtalib o‘tiladi. Bu borada erkinlik va oshkoraklikni to‘g‘ri anglagan holda xolis va aniq manbalarga asoslangan materiallarni tayyorlash, unda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, manfaatlar uyg‘unligiga, matbuot va ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlarini bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrga mos, sog‘lom raqobat muhitini yaratishi, dunyo hamjamiyatida axborot xurujlari tobora avj olayotgan bugungi davrda jurnalistikamiz millat va milliy qadriyatlar himoyachisiga aylanishi borasida aniq va manzilli dasturlarni amaliyotga tadbiq etishimiz zarurdir.

Biz bunda o‘zligimizga xos bo‘lgan qadriyat va an’analaramizni munosib tarzda namoyon qilishimiz, turli yet g‘oyalarga aldanmasligimiz lozim. Buning uchun esa axborot xavfsizligini ta‘minlash va axborot maydonida munosib o‘rin tutishimiz zarur. Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita ochiqlik, oshkoraklik va shaffoflikni ta‘minlash siyosati matbuot, internet tarmoqlari erkinligi va shaxsning o‘z fikrini bayon etish imkonini bermoqda. Jamiyatning ko‘zgusi bo‘lgan ommaviy axborot vositalari bugungi kundagi internet tarmoqlarining faollashuv tabiiyki, odamlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini ta‘minlashga xizmat qilib, davlat hokimiyyati va boshqaruva organlari mutasaddilarining ma’suliyatini oshirmoqda.

